

## KASBIY KOMPETENTLIK USLUBLARNI ISHLAB CHIQISHDA XORIJIY DAVLATLARNING TAJRIBALARI

**Ganjiev Shuxrat Jurayevich**

O‘R MU harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi

### ANNOTATSIYA

Maqola kasbiy kompetentlik uslublarni ishlab chiqishda xorijiy davlatlarning tajribalari mazmuni asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompetentlik, kasbiy, uslub, xorij, davlat, murakkab, tajriba.

### АННОТАЦИЯ

В статье обоснован опыте зарубежных стран в разработке методов профессиональной компетентности.

**Ключевые слова:** компетентность, профессионализм, стиль, зарубежные, государственный, комплекс, опыт.

### ABSTRACT

The article is based on the experience of foreign countries in developing methods of professional competence.

**Keywords:** competence, professionalism, style, foreign, military, state, complex, experience.

Mamlakatimiz ta’lim sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligi hech kimga sir emas. Ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo‘nalishlarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish eng dolzarb masalalardandir. Jahon ta’lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo‘lib bormoqda. Yaponiya, AQSh, Finlandiya, Koreya, Rossiya, Xitoy kabi davlatlarda yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga rivojlanishning asosiy yo‘nalishi sifatida qaralib, ta’limda innovatsiyalarni, shu jumladan, o‘qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarni keng joriy etilishi ta’minlanmoqda.

Tayanch kompetentsiyalarning dunyo bo‘yicha yagona ro‘yxati yo‘q. Chunki har bir mamlakatning yoki regionning o‘z an‘analari, mentaliteti va o‘ziga xos talablari

bor. Kompetentsiya –bu jamiyatning o‘z fuqarolariga qo‘ygan ijtimoiy buyurtmasi bo‘lib, ularning ro‘yxati ma’lum bir mamlakatdagi yoki regiondagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi Bunday kelishuvga har doim ham erishib bo‘lmaydi. Masalan Shveysariyaning va Amerika Qo‘shma Shtatlarining iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda ta’lim statistikasi Milliy institutining “Tayanch kompetentsiyalarni tanlash va aniqlash” nomli loyihasida tayanch kompetentsiyalarni qat’iy ravishda aniqlab olishning imkoniyati bo‘lmagan.

Shunga ko‘ra kompetentsiyalarning **Evropa varianti va Rossiya variantlarini ko‘rib chiqamiz.**

**“Evropa uchun tayanch kompetentsiyalar” nomli Evropa kengashi simpoziumida belgilangan tayanch kompetentsiyalar**

**O‘rganishi kerak:**

- tajribadan foydali biror narsani chiqarib olishi;
- o‘z bilimlari orasidagi o‘zaro aloqani tashkil qilish va ularni tartiblashtirish;
- o‘zining shaxsiy o‘rganish usullarini tashkil qilish(o‘rnatish);
- muammolarni echa olish;

**Izlash:**

- mustaqil bilim olish bilan shug‘ullanish;
- turli ma’lumotlar bazasini izlash;
- tevarak atrofdan surishtirish;
- ekspertdan maslahat olish;
- axborot olish;
- xujjatlar bilan ishlash va ularni turkumlash(klassifikatsiyalash).

**O‘ylash:**

- o‘tgan va hozirgi voqealar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni topmoq;
- jamiyat rivojlanishining u yoki bu aspektiga tanqidiy yondoshmoq;
- murakkablik va o‘ziga bo‘lgan ishonch yo‘qolishiga qarshi turmoq;
- baxslashuvlarda o‘z pozitsiyasini egallash va shaxsiy nuqtai nazariga ega bo‘lmoq;
- o‘qiyotgan va ishlayotgan joydagi siyosiy va iqtisodiy muhitning muhimligini anglash;
- salomatlik, iste’mol qilish, hamda tasviriy san’at va adabiy asarlarini baholay bilish.

**Hamkorlik qilish:**

- Guruhda ishlash va hamkorlik qila olish;
- Qarorlar qabul qilish –anglashilmovchilik va janjallarni bartaraf etish;
- Kelisha olish;
- Shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish.

**Ishga kirishish:**

- Loyihada qatnashish;

- Javobgarlikni olish;
- Guruhga yoki jamoaga kirish hamda o'z hissasini qo'shish;
- Hamkor ekanligini isbotlash;
- O'z ishini tashkil qila bilish;
- Hisoblash va modellashtirish asboblardan foydalana bilish.

Ko'nikish;

- Yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish;
- Tez o'zgarishlar oldida moslashuvchanligini isbotlash;
- Yangi echimlarni topa bilish.

### **Tayanch kompetensiyalarning Rossiya varianti**

- Qadr-qimmat, e'tiqod kompetensiyasi
- Kasbiy kompetensiyalar
- O'quv-o'rganish kompetensiyasi
- Axborot kompetensiyasi.
- Kommunikativ kompetensiya
- Ijtimoiy-mehnat kompetensiyasi
- Shaxsni takomillashtirish kompetensiyasi

Kompetentlik –kompetensiyalarni qo'llay olishda ega bo'lishi kerak bo'lgan minimal tajribasi bo'lishni taqozo etadi. Bu haqda tinglovchining tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni shakllantirishda, hamda o'quv jarayoni va darsliklarni loyihalashda esdan chiqarmaslik kerak.

O'qitishda ularning roli va o'rnini analiz qilish asosida ajratib olingan kompetensiyalarning asosiy funktsiyalarini sanab o'tamiz:

-kundalik hayotda yashash uchun tayyor bo'ladigan yosh fuqarolarga qo'yiladigan ijtimoiy talabning aks etishi;

-bilim, ko'nikma va malakalarini hamda faoliyat usullarini kompleks holda maqsadli qo'llashi uchun atrof muhitdan real ob'ektlarni ko'rsatishi;

-turli o'quv predmetlari va ta'lim sohalari mazmunining tarkibiy qismi bo'lishi;

-konkret masalalarni echishda nazariy bilimlarni amaliyotda foydalanish bilan bog'lashi.

Rossiya ilm-fanida "kasbiy kompetensiya" atamasi birinchi marta M.N.Vyatyutnev tomonidan shaxsning mehnat yoki ta'lim faoliyatida uning intellektual ehtiyojlarini qondiradigan muloqot qilish qobiliyatini bildirish uchun qo'llanilgan. Dastlab, bu atama chet tillarini o'qitish metodologiyasida qo'llanilgan, keyin uni boshqa fan sohalari vakillari o'z ilmiy faoliyatlarida qo'llay boshlaganlar.

Competence so'zining tarjimalaridan biri sifatida "kompetensiya" atamasi bilan bir qatorda "kompetentlik" atamasi ham kirib keldi. Tadqiqot muhitida bu tushunchalar yoki aynishlashtiriladi yoki farqlanadi. I.A.Zimnaya o'z ishlarida bu masalani batafsil

ko'rib chiqadi va kompetensiyaga asoslangan yondashuvga "amaliy, samarali tomon" ni ta'kidlagan holda, tegishli shaxsiy (motivatsiya, motivatsion-irodaviy va hokazo) sifatlarni o'z ichiga olgan yondashuv, kompetentlik asoslangan yondashuv esa kengroq, ta'limning gumanistik qadriyatlari bilan bog'liq yondashuv sifatida ta'riflaydi.

Ushakov tahriri ostida tuzilgan izohli lug'atda "kompetentlik" so'zi "ogohlik, avtoritetlik", har qanday sohadagi bilim, "kompetensiya" esa "1) ma'lum bir shaxs bilimiga, obro'ga, tajribaga ega bo'lgan masalalar, hodisalar doirasi sifatida qaraladi; 2) Kimgadir bo'ysunadigan masalalar, hodisalar (huquqlar) tizimi" deb ta'rif berilgan.

Bu atamalarning batafsil talqinini A.V.Xutorskoy quyidagicha keltiradi: "Kompetensiyaga shaxsning obyektlar va jarayonlarning ma'lum doirasiga nisbatan o'rnatilgan va ularga nisbatan yuqori sifatli samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq sifatlarni yig'indisi kiradi; Kompetentlik - bu shaxsning tegishli vakolatga ega bo'lishi, shu jumladan uning faoliyat subyektiga shaxsiy munosabatidir". Demak, kompetentlikka ega bo'lish ma'lum bilimiga, ma'lum xususiyatga ega bo'lish, biror narsadan xabardor bo'lish, kompetensiyaga ega bo'lish har qanday sohada ma'lum qobiliyatlarga ega bo'lishni anglatadi.

R.S. Nemov kompetentlikka shaxsning biror muammoni hal qilish, u yoki bu faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun yetarli bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligida namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida qaraydi.

Jon Karlayl Raven kompetentlik komponentlarini o'rganar ekan, faol namoyon bo'layotgan komponentlargagina emas, yangi hayotiy vaziyatlarda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan (ko'p hollarda haqiqatda ham namoyon bo'ladigan) latent, yashirin, virtual komponentlarga ham e'tibor qaratadi. Raven kompetentlikni aniq kasbiy sohadagi muayyan harakatlarni samarali bajarilishini kafolatlovchi tor sohadagi bilimlar, ixtisoslik bilan bog'liq ko'nikmalar, o'z faoliyati uchun ma'suliyat hissi, tafakkur uslublari kabilarni o'z ichiga oluvchi maxsus qobiliyatdir deydi. Tadqiqotchi shuningdek, "oliy kompetentlik" ni ajratib ko'rsatadi va uning tarkibiga insonning yuqori tashabbuskorlik darajasi, qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun insonlarni birlashtirish qobiliyati va o'z xatti-harakatining ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilishni kiritadi.

Amerikalik psixolog E.Short mutaxassisni muayyan fanlar doirasidagi bilim va ular bilan bog'liq ko'nikmalarga, shuningdek, psixomotor vazifalar, kasbiy rollar, kognitiv va affektiv faoliyat, shaxslararo muloqot kabilarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan malakalar egasi sifatida tasvirlaydi.

Pedagogik adabiyotlarda hozirgi kungacha kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini talqin qilishda ba'zi bir nomuvofiqliklarni uchratish mumkin. Asosiy

tushunchalarni konkretlashtirish uchun ma'lumotnoma va pedagogik adabiyotlarga murojaat qilaylik.

D.I.Ushakov tomonidan tahrir qilingan "Izohli lug'at" da bu tushunchalar bir-biridan farq qiladi. "Kompetentlik" - bu xabardorlik bo'lsa, "kompetensiya" esa – ma'lum bir shaxs bilim, tajribaga ega bo'lgan qator masalalar doirasi tushuniladi

Chet el so'zlari lug'atida "kompetentli" tushunchasi ma'lum bir sohada malakaga ega bo'lish, bilish kabi talqin etiladi. Katta entsiklopedik lug'atga ko'ra, kompetensiyalar kompetentlikning tarkibiga kiradi.

Zamonaviy, yetuk mutaxassislar tayyorlashda milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlar asosida ta'lim va tarbiya uzviy bog'liqlikda olib borilishi belgilab berildi. Chunki ajdodlarimiz doimo ta'lim va tarbiyani birgalikda olib borganlar va bu borada ulkan merosga ega bo'lganlar. Bu meros bugungi avlodni mardlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ajdodlarimiz farzandni yoshligidan mehnatsevar, mas'uliyatni sezadigan, berilgan vazifalarni o'z vaqtida aniq bajaradigan qilib tarbiyalashga katta e'tibor qaratganlar. Biz ajdodlarimiz tajribasini bugungi globallashuv jarayonida ham qo'llashimiz, bu borada esa, har bir ota-ona, o'quv muassasasi jamoasi va mahallaning yordamiga tayanishimiz kerak. Ta'lim va tarbiyaning samaradorligi barchamizning yoshlar tarbiyasiga mas'uliyat bilan qarashimiz, ularning xatti harakatlariga nisbatan e'tiborli va sinchkov bo'lishimiz, tajribada sinalgan milliy urf-odat va qadriyatlardan unumli foydalanishimizga bog'liq.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Mirziyoev Sh.M. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. /O'zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishdagi nutqi.//Vatanparvar, 2023. 10 yanvar.
2. Psixologik-pedagogik atamalar izohli lug'ati. – T.: O'R Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019 y. –116 b.
3. Satib-Aldiev A. Ofitserning pedagogik madaniyati. O'quv qo'llanma. – Toshkent OUQBYu, 2013. – 38 b.
4. Satib-Aldiev A. Harbiy pedagogning kasbiy kompetentligi. //Harbiy ta'lim va fanda innovatsiyalar jurnali. 2018 y, 2-son. –3-8-betlar.
5. Falsafa: qomusiy lug'at. – T.: Sharq, 2004. – 496 bet.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003, 5-jild. – 704 bet.
7. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
8. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
9. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)